



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2024-yil 12-dekabr

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi birinchi o'rinbosarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha murojaati

Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab **“9- dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”** sifatida nishonlanmoqda.

Mamlakatimizda esa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati korrupsiyaning **oqibatlari** bilan kurashish emas, balki uning **oldini olishga** qaratilgan **preventiv chora-tadbirlarning** amalga oshirilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Buning yaqqol misoli sifatida sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar, davlat boshqaruvida **byurokratiyani** kamaytirish, **ochiqlik** va **shaffoflikni** ta'minlash, **davlat xizmatlarini** ko'rsatish sifatini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganligi sababli, joriy yilda **“Transparency International”** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2023-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan **Korrupsiyani qabul qilish indeksida** mamlakatimiz **180 ta** davlatlar orasida o'z o'rnini **5 pog'ona** yaxshilab, **121-o'rinni** egalladi. (2022-yilda 14 pog'ona yaxshilab 126- o'rinni egallagan).

Mazkur indeksdagi ko'rsatkichlarimizning yaxshilanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari asosida korrupsiyaga qarshi preventiv mexanizmlarni qo'llash ustuvorlik kasb etayotganligi hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan aniq choralarning belgilab berilganligi asosiy omillardan hisoblanadi.

Albatta, mazkur natijalarning asosiy ijrochilari nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul idoralar, balki boshqa davlat idoralari va tashkilotlari, biznes hamjamiyati, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va keng jamoatchilik ham hisoblanadi.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir aniq-chora tadbirlarni belgilash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarish ustuvor hisoblanadi.

“O‘zkimyosanoat” AJ tizimida shu kabi chora-tadbirlarni belgilash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir qator ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar ishlab chiqildi.

Jumladan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom, “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”, jamiyat xodimlarining “Odob-axloq qoidalari” va boshqa shu kabi **10 dan ortiq** ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur ichki idoraviy hujjatlar talablariga tashkilot xodimlari tomonidan amal qilinishi doimiy ravishda monitoring qilib borilmoqda.

Shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi”, dastur doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi, “Korrupsion xavf yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi xodimlarni o‘qitish dasturi” hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashga oid yo‘l xaritalari ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Jamiyat xodimlarining korrupsion harakatlari yuzasidan xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari tashkil etilib, aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tashkilotning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoq kanallarida ochiq joylashtirilgan.

Hozirda tashkilot faoliyatining fuqarolar va jamoatchilik uchun ochiqligini ta‘minlash maqsadida **30 dan ortiq** turdagi ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar Jamiyat rasmiy veb-saytiga doimiy ravishda joylashtirilib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda “O‘zkimyosanoat” AJ hamkorligida tizim xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga oid bir qator amaliy ishlar qilindi.

Xususan, belgilangan vazifalar doirasida tashkilotning **15 nafar** korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozim va funksiyalarida ishlayotgan rahbar xodimlar “CERT ACADEMY GROUP” xalqaro trening tashkiloti tomonidan ISO 37001 standarti asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha malaka oshirish kursida o‘qitildi

Bundan tashqari, tasdiqlangan maxsus o‘quv dasturi doirasida jami **54 nafar** xodimlar hamda tashkilotga yangi ishga qabul qilingan **22 nafar** xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirildi.

O‘z o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, Agentlik tomonidan Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi elektron platforma orqali reyting baholashdan o‘tkazilib, **90 ballni** qo‘lga kiritgan holda **“yaxshi”** deb baholandi.

Bugungi bo‘lib o‘tayotgan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkilot faoliyatining ochiqligi, uning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta‘minlash hamda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, blogerlar va fuqarolarning qiziqtirgan savollariga to‘liq javob olishlari maqsadida tashkil etilgan.

Barchamizga ma‘lumki korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali tizimni yaratish murakkab va mas‘uliyatli jarayon. Bunda har birimiz nafaqat mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga ongli ravishda rioya qilishimiz, balki bu ishga insoniylik burchimiz sifatida qarashimiz lozim.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga “yo‘q” deb ayta olishimiz, qolaversa o‘zimizda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishimiz zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning umumiy ishimiz va ustuvor vazifamizga aylanmog‘i darkor.

Hurmat bilan,

“O‘zkimyosanoat” AJ

boshqaruvi raisi birinchi o‘rinbosari Ye. Korjikov

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/message/anticorruption-message-20241212>